

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.13/05.05.2023.T.07.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**SAPAROV SAIDQUL XO‘JAMUROTOVICH**

**BOSH MIYA SARATONINI ERTA TASHXISLASH MASALALARIDA  
OBYEKTLAR MUHIMLIGINING AXBOROT O‘LCHOVINI ANIQLASH  
ALGORITMLARI**

05.01.03- Informatikaning nazariy asoslari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Saparov Saidkul Xo'jamurodovich**

Bosh miya saratonini erta tashxislash masalalarida obyektlar muhimligining axborot o'lchovini aniqlash algoritmlari..... 5

**Сапаров Саидкул Хужамуродович**

Алгоритмы определения информационной меры важности объектов в задачах ранней диагностики рака головного мозга..... 21

**Saparov Saidkul Khojamurodovich**

Algorithms for determining the informational measure of object importance in early diagnosis of brain cancer ..... 39

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 43

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.13/05.05.2023.T.07.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**SAPAROV SAIDQUL XO‘JAMUROTOVICH**

**BOSH MIYA SARATONINI ERTA TASHXISLASH MASALALARIDA**  
**OBJEKTLAR MUHIMLIGINING AXBOROT O‘LCHOVINI ANIQLASH**  
**ALGORITMLARI**

05.01.03- Informatikaning nazariy asoslari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/T4635 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomli Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.tuit.uz) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nishanov Axram Xasanovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Primova Xolida Anorboyevna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Xamrayev Alisher Shodmonqulovich**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori,  
katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

Toshkent davlat transport universiteti

Dissertatsiya himoyasi Muhammad al-Xorazmiy nomli Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/05.05.2023.T.07.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "3" sentabr soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shox ko'chasi, 108-uy. Tel.:(99871) 238-64-43, e-mail: ilmiy\_kengash@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Muhammad al-Xorazmiy nomli Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (365 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shox ko'chasi, 108-uy Tel.: (99871) 238-64-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "20" avgust da tarqatildi.  
(2025-yil "20" avgust dagi 11- raqamli reestr bayonnomasi.)



**M.M. Kamilov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, texnika fanlari doktori,  
professor, O'zFA akademigi

**N.A. Egamberdiyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, texnika  
fanlari bo'yicha falsafa doktori

**N.O. Raximov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi,  
texnika fanlari doktori, dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda katta hajmdagi ma'lumotlarga ishlov berish texnologiyalari sanoat, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarga jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Bu texnologiyalar asosida obyektlar va belgilar muhimligi axborot o'lchovlarini aniqlashning algoritmik ta'minoti, ularning amaliyotga tadbiri, timsollarni tanib olish nazariyasi va amaliyoti rivojida yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida raqamli texnologiyalarga bo'lgan e'tibor ortib borayotganligi tufayli, ma'lumotlar intellektual tahlilida obyektlar muhimligi axborot o'lchovini aniqlashga asoslangan klasterlash, sinflashtirish, informativ belgilar majmuasini tanlash va kasallikka tashxis qo'yish masalalarining algoritmik va dasturiy ta'minotini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan inson faoliyatining barcha jabhalarida ma'lumotlar intellektual tahlili rivoji uchun tadqiqot obyekti va belgilar muhimligiga asoslangan nazariya va algoritmik ta'minotdan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda katta hajmda berilgan turli tipdagi ma'lumotlar intellektual tahlilida obyektlar va belgilar muhimligi o'lchov birliklarini aniqlashga asoslangan klasterlash, sinflashtirish va informativ belgilarni tanlash algoritmlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, ma'lumotlarga dastlabki ishlov berish, klasterlash, sinflashtirish va informativ belgilar majmuasini tanlash algoritmlarini ishlab chiqishda obyektlar va belgilar majmualarining muhimlik darajalarini aniqlash mezonlarining shakllantirilishi hamda taklif etilgan masalalarning matematik ta'minotini yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda ham mazkur yo'nalishda ma'lumotlarga dastlabki ishlov berish, tahlil qilish hamda timsollarni tanib olishga mo'ljallangan algoritmlar va apparat-dasturiy majmualarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida, jumladan "...iqtisodiyot, ijtimoiy soha va boshqaruv tizimiga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish..."<sup>1</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, tibbiyot, ta'lim, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalari ma'lumotlariga asoslangan qaror qabul qilish tizimlari, intellektual tahlil platformalari hamda sun'iy intellekt asosidagi apparat-dasturiy yechimlar bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etilishi, bunda axborot xavfsizligi, tizimlar aro integratsiya va foydalanuvchiga qulay interfeyslar yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevralda "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya sohasini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-sonli, 2020-yil 5-oktabrda "Raqamli O'zbekiston- 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli, 2020-yil 28-aprelda "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni

joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli, 2022-yil 28-yanvarda "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli, 2023-yil 11-sentabrda "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevralda "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-sonli, 2023-yil 28-dekabrda "Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish hamda ilg'or raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"dagi PQ-415-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining IV."Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Bosh miya saratonini erta tashxislash masalalarini hal qilishda faoliyat yuritgan xorijlik doktorlar: Dr. Paul Mischel: Glioblastoma bo'yicha ishi bilan tanilgan doktor Mischel miya saratonining molekulyar mexanizmlarini tushunishga katta hissa qo'shgan; Dr. Ingo Mellinghoff: Memorial Sloan Kettering saraton markazi tadqiqotchisi, Dr. Mellinghoff miya o'smalarining molekulyar biologiyasi va maqsadli davolash usullariga e'tibor qaratadi; Dr. Webster Cavenee: Miya saratoni bo'yicha tadqiqotlarning ko'zga ko'ringan vakili, doktor Kaveni gliomalarning genetik asoslari ustida ishlagan; Dr. Susan Chang: U neyro-onkologiya bo'yicha tajribaga ega va miya shishlarining turli jihatlari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan; Dr. David Reardon: Neyro-onkolog doktor Reardon miya saratonini davolash bilan bog'liq klinik sinovlar va tadqiqotlarda ishtirok yetgan; Dr. John Sampson: Miya shishi va glioblastoma uchun immunoterapiya bo'yicha ishi bilan tanilgan; Dr. Mitchel Berger: Miya shishi jarrohlik texnikasi va tadqiqotlariga hissa qo'shgan neyroxirurg; Dr. Anna Krichevsky: Miya saratonida mikroRNK ustida ishlagan tadqiqotchi; Fred Hutchinson Cancer Research Center: Ushbu muassasada miya saratonining turli jihatlari ustida ishlaydigan ko'plab olimlar ishtirok etgan miya saratoni bo'yicha tadqiqot dasturi mavjud.

Tibbiyot sohasiga ma'lumotlar ilmini joriy qilgan xorijiy olimlar: Y.I.Juravlev, N.G.Zagoruyko, L.A.Rastrigin, P.M.Chegolin, A.L.Gorelik, M.B.Aydarxanov, G.S.Lbov, va boshqalar.

Respublikamizda sog'liqni saqlash tizimi tashkilotlariga ma'lumotlarni intellektual tahlili yo'nalishida olishgan ilmiy nazariy natijalarini amaliyotga tadbiri bo'yicha: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi M.M.Kamilov, Sh.X.Fozilov, F.T.Adilova, X.A.To'raqulov, N.A.Ignatyev, A.X.Nishanov, N.S.Mamatov, B.B.Akbaraliyev, M.Xudoyberdiyev, S.Rajabov va boshqalar o'z hissalarini qo'shib kelishmoqda.

Albatta, bu yo'nalishda ko'p ilmiy ishlar mavjudligiga qaramasdan, bosh miya saratoni kasalliklarini erta aniqlashda tadqiqot obyektlari holatlarini muhimligining axborot o'lchov mezoni asosida baholash, tibbiy tashxis qo'yish, belgilar majmualarini

tanlash, simtokomplekslarni aniqlash masalalari to‘liq hal qilinmagan, yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining BA-5-017-“Ma’lumotlarni intellektual tahlili usullari asosida ko‘krak va bachadon bo‘yni saratoni diagnostikasi algoritmlari va dasturiy ta’minotini yaratish” (2017-2019), №BV-V-F4-011-“Noaniqlik sharoitlarida ma’lumotlarni intellektual tahlilining noravshan-nokorrekt masalalarini yechish usul va algoritmlari” (2017-2020) mavzularidagi ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Bosh miya saratonini erta tashxislashda belgilar muhimligini ta’minlovchi axborot mezonlariga asoslangan obyektlar muhimligi axborot o‘lchovini aniqlash algoritmlarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

miya saratoni bemorlarining kasallik varaqalari asosida belgilar fazosi va tanlanmalarni shakllantirish, ma’lumotlarga dastlabki ishlov berish, obyekt-belgilar muhimligini baholashning axborot o‘lchov mezonlari va algoritmlari tahlil qilish;

bosh miya saratoni o‘quv tanlanma sinflarini shakllantirishda tibbiy timsollar muhimligining axborot o‘lchovini aniqlash algoritmini ishlab chiqish;

ma’lumotlarni intellektual tahlil qilish usul va algoritmlari kombinatsiyasi asosida miya saratoni obyektlarining ahamiyatligini axborot o‘lchovini aniqlash algoritmini ishlab chiqish;

miya saratoni obyektlarining muhimligini aniqlashga yordam beradigan belgilar majmualarini tanlash algoritmini ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan algoritmlar kesimida tibbiyotning amaliy masalalarini yechishga ko‘mak beruvchi dasturiy majmuani ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida bosh miya saratonini erta tashxislash, obyektlar va belgilarni muhimligini aniqlash axborot o‘lchov mezonlari va algoritmlari, belgilar majmualarini tanlashga asoslangan yondashuvlar olingan.

**Tadqiqotning predmeti.** Bosh miya saratoni kasalliklarini erta tashxislashda obyektlarning muhimliklarini axborot o‘lchov mezonlari va algoritmlaridan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida ma’lumotlar bilimi va intellektual tahlil qilish usullari asosida axborotdan samarali bilim ajratib olishga yo‘naltirilgan yondashuvlardan, tashxislash va tasniflash vazifalarida qaror daraxtlari (Decision Tree), k- means, o‘rganiluvchi vektor mashinalari (SVM) kabi klassik mashinali o‘qitish modellari va timsollarni tanib olish usullariga asoslangan holda klasterlash, sinflashtirish, informativ belgilar majmuasini tanlash va baholash hamda ular asosida tashxislash borasida ishlab chiqilgan usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bosh miya saratoni bilan kasallangan bemorlarga erta tashxis qo‘yishda obyektlar va ularni tavsiflovchi belgilarning tashxislashga qo‘shgan axborot hissasini aniqlashga asoslangan evristik mezonlari ishlab chiqilgan;

miya saratoni tashxisiga oid mashinali o'qitish modellari uchun klinik belgilar axborot o'lchoviga asoslangan sintetik o'quv tanlanmasini yaratish algoritmi ishlab chiqilgan;

nominal belgilar fazosi asnosida shakllantirilgan miya saratoni obyektlarining muhimligi axborot o'lchovini aniqlashga asoslangan informativ belgilar majmualarini tanlash algoritmi ishlab chiqilgan;

ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usul va algoritmlari asosida miya saratoni obyektlarining tashxislashga qo'shgan axborot hissasini baholash orqali ularning muhimlik darajasini aniqlash asnosida sinflashtirishga asoslangan algoritmi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

miya saratoni bemorlar kasallik darajalarini baholash axborot o'lchovi mezonini va algoritmlari asnosida tibbiy tashxislash jarayonlarini avtomatlashtirish va yakuniy tashxis qo'yishga ko'maklashuvchi dasturiy majmuasi ishlab chiqilgan;

dasturiy majmuasini tibbiyot sohasining amaliy masalalarini yechishga tatbiq etish natijasida erta tashxislash bilan bog'liq bo'lgan muammolar hal etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Miya saratonini erta tashxislashda taklif etilgan algoritmlarning ishonchliligi bir necha omillarga bog'liq bo'lib, jumladan, axborot o'lchovi mezonining nazariy asoslanganligi, o'quv tanlanmaning sifati va algoritmlarning tajriba-sinovlar orqali tekshirilganligi bilan belgilanadi. Ushbu algoritmlar turli baholash ko'rsatkichlari asosida sinovdan o'tkazilib, mutaxassis-ekspertlar tomonidan ijobiy baholangan. Natijalar diagnostik aniqlikni oshirishga xizmat qiluvchi samarali tizim yaratishga asos bo'ldi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati miya saratonini erta aniqlashda obyektlar muhimligining axborot o'lchovini aniqlash, signallarni qayta ishlash, ma'lumotlar fani va sun'iy intellekt kabi turli sohalar bilan kesishadigan murakkab tadqiqotdir. Bunday tadqiqotlarning ilmiy ahamiyati miya saratonining dastlabki ko'rsatkichlari asnosida samarali va mukammal aniqlay oladigan algoritmlarni ishlab chiqilganligi va ularni rivojlantirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan algoritmlar miya shishlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash orqali saraton kasalligining individual xususiyatlariga moslashtirilgan shaxsiylashtirilgan davolash rejalarini ishlab chiqishda yordam beradi. Samarali algoritmlar asosida yaratilgan dasturiy majmua tibbiyot sohasida ko'mak beruvchi zamonaviy tanib olish tizimi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ilmiy tadqiqotda ishlab chiqilgan algoritmlar asosida yaratilgan "Aqli onkologiya" dasturiy majmuasi asosida:

miya saratoni o'quv tanlanma sinflarini shakllantirishda tibbiy timsollar muhimligining axborot o'lchovini aniqlash algoritmi asosida yaratilgan dasturiy majmua Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qoraqalpog'iston filialida joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil 29-martdagi 04/2366-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bu bemorlar uchun qulay shart-sharoit muhitini yaratib, ularning Neyroxirurg va Radiologilar maslahatini olish zarurligini yoki zaruriyat emasligini ko'rsatdi.

Shuningdek, bu jarayonda shifokorlar uchun bosh miya kasalliklarini erta aniqlash, bu soha mutaxassislarining ish unumdorligini o'rtacha 15% ga oshirishga imkon berdi;

ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usul va algoritmlari kombinatsiyasi kesimida miya saratoni obyektlarining muhimligini axborot o'lchovini aniqlash algoritmi asosida yaratilgan dasturiy majmua Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qoraqalpog'iston filialida joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil 29-martdagi 04/2366-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bosh miya kasalliklar sinfining muhimlik ko'rsatgichlari baholanilgan va ular asosida sinflarning vakil obyekti aniqlangan. Buning natijasida radiolog va onkologlar tomonidan bosh miya kasalliklariga tashxis qo'yishda muayyan tibbiy choralarni o'z vaqtida amalga oshirishga, buning natijasida ma'lumotlarni tahlil qilish uchun ketadigan vaqtni 15% ga qisqartirish va tashxislash samaradorligini 20% ga oshirga imkon berdi;

miya saratoni obyektlarining muhimligini aniqlashda informativ belgilar majmualarini tanlash algoritmi asosida yaratilgan dasturiy majmua Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tuman tibbiyot birlashmasida joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2025- yil 29- martdagi 04/2366-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bosh miya saratoni kasalliklarini xarakterlovchi 19 ta belgilar majmuasidan tashxis qo'yishda eng muhim bo'lgan 6 ta belgidan iborat bo'lgan informativ belgilar majmuasi tanlab olingan. Buning natijasida informativ belgilar majmuasidan foydalanib kasallikka tashxis qo'yishga ketadigan vaqtni taxminan 1.7 barobarga qisqartirish imkonini berdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy nazariy hamda amaliy natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-texnik hamda ilmiy- amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha asosiy natijalar 19 ta ilmiy ishlarda e'lon qilingan bo'lib, ulardan 8 ta O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda, shu bilan birga 2 tasi boshqa xorijiy jurnallarda nashr qilingan hamda 2 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy mahsulotlarga qayd qilish guvohnomalari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk Agentligidan olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 108 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi kursatilgan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan

natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyatini ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Miya saratonini erta tashxislash bo'yicha yondashuvlar”** deb nomlangan birinchi bobining 1.1-paragrafida bosh miyadagi o'smalar va ularni erta aniqlashda belgilarning axboriy muhimligi, belgilarda axboriy muhimlik tushunchasining ilmiy asosi, klinik belgilarning axboriy muhimligi to'g'risida batafsil tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan bir qatorda mazkur bobning 1.2-paragrafida tanib olish obyektlarining muhimligini axborot o'lchovi mezonlari va ularni hisoblash algoritmlarining qo'llanilishi keltirilgan bo'lsa, 1.3-paragrafida esa obyektlar muhimligining axborot o'lchovini aniqlashga asoslangan masalalari va ularni yechishga doir yondashuvlar keltirilgan bo'lib, bu yondashuvlarni tahlil etgan holda tadqiqot masalasining qo'yilishi aniqlab olingan.

Faraz qilaylik,  $N$  o'lchovli nominal belgilar fazosida bosh miya saratonini tashxislash obyektlari  $x_i \in X, i = \overline{1, M}$ ; berilgan bo'lsin. Bunda quyidagi masalalarni yechish talab etilsin:

**1-Masala.** Umumiy tanlanmadan  $x_i \in X, i = \overline{1, M}$ ; o'quv tanlanmalarini  $x_{p1}, x_{p2}, \dots, x_{pm_p} \in X_p, p = \overline{1, r}$ ; shakllantirish;

**2-Masala.** Bosh miya saratoni kasalligining klinik belgilari axborot o'lchovi asosida yarim sintetik o'quv tanlanmani shakllantirish;

Berilgan  $N$  - o'lchovli nominal belgilar fazosidagi  $x_i \in X, i = \overline{1, M}$ ; umumiy tanlanmadan foydalangan holda har bir sinfga yangi  $K$  ta obyekt qo'shiladigan sintetik o'quv tanlanmalarni shakllantirish talab etilsin.

Bunda  $x_{p1}, x_{p2}, \dots, x_{pm_p} \in X_p, p = \overline{1, r}$ ; sinflari obyektlarining belgilari axborot o'lchovi kattaligi oldindan aniqlangan  $\delta$  sonidan kam bo'lmasligi talab etiladi. Bu yerda  $X_p$  sinf  $m_p$  ta  $x_{p1}, \dots, x_{pm_p}$  obyektlardan tashkil topgan  $X = \bigcup_{p=1}^r X_p$  bo'ladi.

**3-Masala.** Nominal belgilar fazosida informativ belgilar majmuasini tanlash;

Faraz qilaylik,  $N$  - o'lchovli nominal belgilar fazosida bosh miya saratoni kasalligining o'quv tanlanmasi  $x_{p1}, x_{p2}, \dots, x_{pm_p} \in X_p, p = \overline{1, r}$ ; berilgan bo'lsin. O'quv tanlanmadagi har bir obyekt  $x_{pi} = (x_{pi}^1, x_{pi}^2, \dots, x_{pi}^N)$ ,  $i = \overline{1, m_p}$ , bemorlar  $N$  - o'lchovli nominal belgilar fazosida berilgan. Bu yerda  $x_{pi}$ ,  $p$ -sinfning  $i$ -obyekti deb o'qiladi,  $N$ - obyektarni tashkil etuvchi belgilar sonini bildirsa,  $m_p$ -  $p$  sinfdagi obyektlar sonini bildiradi. Demak,  $x_{pi} = (x_{pi}^1, x_{pi}^2, \dots, x_{pi}^N)$  bemorlari  $p$ -sinfdagi  $i$  ( $i = \overline{1, m_p}$ ) - obyektarni tashkil etadi.

Nominal belgilar fazosida informativ belgilar majmuasini tanlashda quyidagi

optimizatsiya masalasi yechilsin: 
$$\begin{cases} \frac{1}{m_p(m_p-1)} \sum_{i=1}^{m_p} \sum_{q=1}^{m_p} (\chi_{pi}(x_{pi}, x_{pq}), \lambda) \rightarrow \max \\ \lambda \in \Lambda^\ell = \{\lambda: \sum_{j=1}^N \lambda^j = \ell, \lambda^j \in \{0,1\}, j = \overline{1, N}\} \end{cases}$$

**4-Masala.** Nazorat tanlanmasi  $W = \{w_1, \dots, w_n\}$  berilgan bo'lsin. Talab etiladi nazorat obyektlari  $w_i, i = 1, \dots, n$  ni  $X_p, p = \overline{1, r}$ ; - sinflardan qaysi biriga tegishli ekanligini aniqlansin.

Nazorat tanlanmasi  $W = \{w_1, \dots, w_n\}$  ko‘rinishida berilgan bo‘lsin. Nazorat obyektlari  $w_i, i = 1, \dots, n$  ni  $X_p, p = \overline{1, r};$  - sinflardan qaysi biriga tegishli ekanligini topish talab etiladi.

Dissertatsiyaning **“Bosh miya saratonini erta tashxislashda obyektlar muhimligining axborot o‘lchovini aniqlash mezonlari va algoritmi”** deb nomlangan ikkinchi bobning 2.1-paragrafida bosh miya saratonini erta tashxislashda tadqiqot obyektlarining muhimliklarini ta‘minlovchi axborot o‘lchovlari va ularni mazmunini aniqlab beruvchi mezonlar, hamda obyektlar muhimligini axborot o‘lchovini aniqlashning umumiy tushunchalar, belgilashlar va ta‘riflar keltirilgan.

Mazkur bobning 2.2-paragrafida bosh miya saratonini kasalligining klinik belgilari axborot o‘lchovi asosida yarim sintetik o‘quv tanlanmani yaratish algoritmi ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu algoritm nominal belgilar fazosi uchun sintetik obyektlar yaratishda obyektlarning o‘rtacha axborot o‘lchovini baholash orqali yangi kengaytirilgan DataSetni yaratishga qaratilgan.

Quyida esa sintetik o‘quv tanlanma yaratish masalasini yechishning quyidagi bosqichlarini keltirib o‘tamiz:

1-bosqich. O‘quv tanlanma  $x_i \in X, i = \overline{1, M};$  obyektlari  $p$  ta sinfga ajratilgan. Ya‘ni, birinchi masala yechimi asosida  $x_{p1}, x_{p2}, \dots, x_{pm_p} \in X_p, p = \overline{1, r};$  sinflarga ajratiladi;

2-bosqich. Quyida keltirilgan (1) formula asosida barcha  $p = \overline{1, r}; i \neq q = \overline{1, m_p}; j = \overline{1, N};$  lar uchun  $\mu^j(x_{pi}, x_{pk})$  oldindan hisoblanadi.

Bu bosqichda dastlab, obyektlarni o‘xshashlik darajalarini aniqlash mezonidan foydalaniladi, bunda obyektlarni o‘xshashliklarini aniqlash uchun  $\mu(x_{pi}, x_{pk}) = (\mu^1(x_{pi}, x_{pk}), \mu^2(x_{pi}, x_{pk}), \dots, \mu^N(x_{pi}, x_{pk}))$  bul vektoridan foydalaniladi:

$$\mu^j(x_i, x_k) = \begin{cases} 1 & \text{agar } x_i^j = x_k^j, j = \overline{1, N}. \\ 0 & \text{aks holda} \end{cases} \quad (1)$$

bu yerda  $\mu^j(x_{pi}, x_{pk}) = 1$  bo‘ladi, agar ikkida obyektning mos komponentalari  $x_i^j = x_k^j$  o‘zaro teng bo‘lsa, aks holda  $\mu^j(x_{pi}, x_{pk}) = 0$  bo‘ladi. So‘ngra, belgilar o‘lchovini baholash mezonlari hisoblanadi.

3-bosqich. Ixtiyoriy  $p$  – sinfdagi  $i$  – obyekt, shu sinfdagi  $m_p - 1$  ta obyektlar majmuasidagi muhim belgilar axborot o‘lchovi quyidagicha baholanadi va uni oldindan quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$I_{pi}(x_{pi}, X_p) = \frac{1}{m_p - 1} \sum_{q=1}^{m_p - 1} \sum_{j=1}^N \mu_{pi}^j(x_{pi}, x_{pq}), p = \overline{1, r}; i = \overline{1, m_p}; i \neq q. \quad (2)$$

4-bosqich. Shuningdek, ixtiyoriy  $p$  -sinfdagi obyektlarining o‘rtacha axborot o‘lchovi foizda quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$I_p(X_p) = \frac{1}{m_p} \sum_{i=1}^{m_p} I_{pi}(x_{pi}, X_p) * 100\%, p = \overline{1, r}; i = \overline{1, m_p}; \quad (3)$$

5-bosqich. Yangi  $\bar{x}$  obyekti  $X_p, p = \overline{1, r};$  sinflari uchun sintetik yaratilganida ushbu sinfdagi obyektlarning o‘rtacha axborot o‘lchovi kattaligi  $I_p(X_p)$  ning ko‘tarilishini ta‘minlagan muhim belgilarni saqlangan holda yaratilgan obyektlar ushbu sinfga qo‘shiladi. Agarda  $p$ - sinfdagi obyektlar soni  $m_p = 1$  bo‘lsa, u holsa

sintetik obyekt yaratilayotganda sinfdagi obyektning boshqa sinflar obyektlaridan ajralib turadigan belgilarni saqlangan holda yaratiladi. Bunda  $I_p(X_p) > 65\%$  qanoatlantirish talab etiladi.

Yuqorida keltirilgan bosqichlardan foydalangan holda yarim sintetik o'quv tanlanmani yaratish algoritmi quyidagi qadamlarda olib boriladi:

**1-qadam.** Umumiy o'quv tanlanma obyektlari ma'lumotlar bazasiga kiritiladi. Boshlang'ich ma'lumotlar bazasi barcha  $x_i \in X, i = \overline{1, M}$ ; obyektlar kesimida shakllantiriladi.

**2-qadam.** Ma'lumotlarga dastlabki ishlov berish jarayoni amalga oshiriladi. Bunda ma'lumotlarni tozalash ya'ni to'plangan ma'lumotlarda xatolar, yo'qolgan qiymatlar, nusxalar, yoki noaniq ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Bular to'g'rilanadi va ma'lumotlar normirovka qilinadi.

**3-qadam.** Umumiy o'quv tanlanma oldindan  $x_{p1}, x_{p2}, \dots, x_{pm_p} \in X_p, p = \overline{1, r}$ ; sinflarga ajratiladi.

**4-qadam.** Shakllantirilgan har bir sinf uchun obyektlarning o'rtacha axborot o'lchovi kattaligi  $I_p(X_p), p = \overline{1, r}$ ; ning qiymatlari aniqlanadi.


**5-qadam.** Yangi  $\bar{x}$  obyekt  $X_p, p = \overline{1, r}$ ; sinflari uchun ushbu sinfdagi obyektlarning o'rtacha axborot o'lchovi kattaligi  $I_p(X_p)$ ning ko'tarilishini ta'minlagan muhim belgilari saqlangan holda yaratiladi.

**6-qadam.** Agarda  $p$ - sinfda obyektlar soni  $m_p = 1$  bo'lsa, u holsa sintetik obyekt yaratilganda sinfdagi obyektning boshqa sinflar obyektlaridan ajralib turadigan belgilari saqlangan holda yaratiladi.

**7-qadam.** 5, 6-qadamlar har bir sinfga  $K$  ta yangi sintetik obyektlar qo'shilgunicha davom etadi. Natijada gibrid obyektlardan iborat sinflar paydo bo'ladi.

Mazkur klinik belgilar axborot o'lchoviga asoslangan sintetik o'quv tanlanma yaratish algoritmining blok sxemasi quyida keltirilgan 1-rasmda ifoda etilgan.

2.3.-paragrafda sinflashtirishda keng qo'llaniladigan algoritmlar, obyektlarni muhimlik darajalariga mos sinflashtirish va KNIME muhitidagi algoritmlarning amaliy natijalar tahlili keltirilgan.



**1-rasm. Klinik belgilar axborot o'lchoviga asoslangan sintetik o'quv tanlanma yaratish algoritmining blok sxemasi**

Dissertatsiya ishining “**Obyektlar axborot o‘lchovini aniqlashning informativ belgilarni tanlash va sinflashtirishga asoslangan algoritm-lari**” deb nomlangan uchinchi bobining 3.1-paragrafida bosh miya saratonida obyektlar muhimligini axborot o‘lchovini aniqlashning asosiy tushunchalar, ta’riflar va masalalarini shakllantirishga bag‘sihlangan. 3.2-paragrafida nominal ma’lumotli fazoda axborot o‘lchovini aniqlashga asoslangan informativ belgilarni tanlash algoritmi ishlab chiqilgan.

Faraz qilaylik, nominal belgilar fazosida obyektlar va ularning sinflari berilgan  $x_{p1}, x_{p2}, \dots, x_{pm_p} \in X_p, p = \overline{1, r}; x_{pi} = (x_{pi}^1, x_{pi}^2, \dots, x_{pi}^N), i = \overline{1, m_p};$  bo‘lsin.

Nominal belgilar fazosida obyektlarning o‘xshashligini ko‘rsatuvchi kattalik kattalik vektorning parametrlari

$\rho_{pi}(x_{pi}, x_{pq}) = (\rho_{pi}^1(x_{pi}, x_{pq}), \rho_{pi}^2(x_{pi}, x_{pq}), \dots, \rho_{pi}^N(x_{pi}, x_{pq}))$  ko‘rinishda ifodalaniladi. Shuningdek,  $\lambda = (\lambda^1, \lambda^2, \dots, \lambda^N)$  bul vektori bo‘lib, uning komponentalari 0 yoki 1 qiymat qabul qiladi.

Agar  $\lambda^j = 1$  bo‘lsa, u holda  $j$  –komponent hisoblash ishlarida ishtirok etadi, aks holda  $\lambda^j = 0$  bo‘lsa,  $j$  –komponent hisoblash ishlarida ishtirok etmaydi. Quyida  $\lambda = (\lambda^1, \lambda^2, \dots, \lambda^N)$  vektorlardan tashkil topgan  $\ell$  informativli vektorlar to‘plamini  $\lambda \in \Lambda^\ell = \{ \lambda: \sum_{j=1}^N \lambda^j = \ell, \lambda^j \in \{0,1\}, j = \overline{1, N} \}$  ko‘rinishda ifodalanadi.

Quyidagi skalyar ko‘paytmani qaraylik,  $(\rho_{pi}(x_{pi}, x_{pq}), \lambda) = \rho_{pi}^1(x_{pi}, x_{pq})\lambda^1 + \rho_{pi}^2(x_{pi}, x_{pq})\lambda^2 + \dots + \rho_{pi}^N(x_{pi}, x_{pq})\lambda^N$  va  $I(\lambda, x_{pi}, X_p)$  – axborotni o‘lchash mezon qiymatlari quyidagicha hisoblansin:

$$I(\lambda, x_{pi}, X_p) = \frac{1}{m_p - 1} \sum_{q=1}^{m_p} (\rho_{pi}(x_{pi}, x_{pq}), \lambda), i \neq q, \quad (4)$$

Bu ifodaning ma’nosi  $X_p$  sinfnig barcha obyektlari tomonidan  $x_{pi}$  obyektning axborot o‘lchovini aniqlab beradi.

Shuningdek,  $X_p$  sinfnig barcha obyektlarining axborot o‘lchovini aniqlash mezoni  $I(\lambda, X_p)$  ko‘rinishda o‘z ifodasini topadi va quyidagicha hisoblanadi:

$$I(\lambda, X_p) = \frac{1}{m_p} \sum_{i=1}^{m_p} I(\lambda, x_{pi}, X_p) = \frac{1}{m_p(m_p - 1)} \sum_{i=1}^{m_p} \sum_{q=1}^{m_p} (\rho_{pi}(x_{pi}, x_{pq}), \lambda), i \neq q. \quad (5)$$

Nominal ma’lumotli fazoda timsollarni axborot o‘lchovini aniqlash asosida informativ belgilarni tanlash masalasini hal qilish uchun quyidagi optimizatsiya masalasini yechimini topish talab etiladi

$$\begin{cases} \max_{\lambda} I(\lambda, X_p) \\ \lambda \in \Lambda^\ell = \{ \lambda: \sum_{j=1}^N \lambda^j = \ell, \lambda^j \in \{0,1\}, j = \overline{1, N} \} \end{cases}$$

Shunday  $\ell$  informativli  $\lambda = (\lambda^1, \lambda^2, \dots, \lambda^N)$  vektori topiladiki ushbu qiymatda optimizatsiya masalasi maksimal qiymat qabul qilinadi.

Ixtiyoriy, birorta  $X_p, p = \overline{1, r};$  sinfi uchun

$$I(\lambda, x_{pi}, X_p) = \frac{1}{m_p - 1} \sum_{q=1}^{m_p} (\rho_{pi}(x_{pi}, x_{pq}), \lambda), i \neq q$$
 ni hisoblansin.

Bu tenglikni ikkala tomonini  $m_p - 1$  ga ko‘paytiramiz, u holda

$$I(\lambda, x_{pi}, X_p)(m_p - 1) = \sum_{q=1}^{m_p} (\rho_{pi}(x_{pi}, x_{pq}), \lambda).$$

Bu ifodadan quyidagi o‘rinli

$$I(\lambda, x_{pi}, X_p) = \frac{1}{m_p-1} (a_{pi}, \lambda) \quad (6)$$

bu yerda

$$a_{pi}^j = \sum_{q=1}^{m_p} \rho_{pi}^j(x_{pi}, x_{pq}), \quad j = \overline{1, N}. \quad (7)$$

Bu yerda  $I(\lambda, x_{pi}, X_p)$  – funksionalni,  $\lambda$  vektor komponentalari kesimida,  $x_{pi}$  obyektini  $X_p$  sinf obyektleri tomonidan baholash mezoni deb tushuniladi. Uning qiymatining ma'nosi  $x_{pi}$  obyektini  $X_p$  sinf obyektleri tomonidan baholanganligi deb tushuniladi va mana shu sinfni shakllanishida ushbu obyektning qo'shgan hissasi deb tushuniladi.

Yuqorida keltirilgan (6) va (7) formulalardan foydalanib,  $X_p$  sinfning barcha obyektlerini baholash mezoni  $I(\lambda, X_p)$  quyidagi ko'rinishda hisoblanadi

$$I(\lambda, X_p) = \frac{1}{m_p(m_p-1)} \sum_{i=1}^{m_p} (a_{pi}, \lambda). \quad (8)$$

Nominal ma'lumotli timsollarni tanib olishda (11) funksionaldan foydalangan hoda informativ belgilarni tanlash masalasini,  $X_p$  sinf obyektleri kesimida hal qilish uchun quyidagi optimizatsiya masalasini yechimini topish talab etiladi:

$$\begin{cases} \frac{1}{m_p(m_p-1)} \sum_{i=1}^{m_p} (a_{pi}, \lambda) \rightarrow \max \\ \lambda \in \Lambda^\ell = \{ \lambda: \sum_{j=1}^N \lambda^j = \ell, \lambda^j \in \{0,1\}, j = \overline{1, N} \} \end{cases} \quad (9)$$

Bu (9) optimizatsiya masalasi yechimi bir tomondan  $X_p$  sinf obyektleri aro o'xshashlik darajalarini aniqlovchi kattalikni bersa, ya'ni obyektleri barchalarini  $X_p$  sinfni shakllanishiga qo'shgan hissasini bersa, ikkinchi tomondan tadqiq etilayotgan obyektleri o'xshashlik darajalarini aniqlashda maksimal qiymat beruvchi informativ belgilar mjmuasini tanlash masalasi yechimini beradi.

Maqsad funksionalini, ya'ni (9) ning yuqori qismini quyidagicha yoyib ifodalash mumkin

$$\begin{aligned} \frac{1}{m_p(m_p-1)} \sum_{i=1}^{m_p} (a_{pi}, \lambda) &= \frac{1}{m_p(m_p-1)} [ (a_{p1}, \lambda) + (a_{p2}, \lambda) + \dots + \\ & (a_{pm_p}, \lambda) ] = \frac{1}{m_p(m_p-1)} [ (a_{p1} + a_{p2} + \dots + a_{pm_p}, \lambda) ] = \left( \frac{1}{m_p(m_p-1)} a_{p1} + \right. \\ & \left. \frac{1}{m_p(m_p-1)} a_{p2} + \dots + \frac{1}{m_p(m_p-1)} a_{pm_p}, \lambda \right) = (a_p, \lambda). \end{aligned}$$

Bu yerda  $a_p = (a_p^1, a_p^2, \dots, a_p^N)$  vektor quyidagicha yoziladi:

$$a_p = \frac{1}{m_p(m_p-1)} a_{p1} + \frac{1}{m_p(m_p-1)} a_{p2} + \dots + \frac{1}{m_p(m_p-1)} a_{pm_p}.$$

Ushbu vektorning komponentalari esa,

$$a_p^j = \frac{1}{m_p(m_p-1)} \sum_{i=1}^{m_p} \sum_{j=1}^N a_{pi}^j, \quad j = \overline{1, N} \quad (10)$$

ko'rinishda hisoblanadi. Umumiylikka zarar yetkazmagan holda (10) orqali ifodalangan  $a_p$  vektor  $a_p^j$ ,  $j = \overline{1, N}$  komponentalarini kamayish tartibida joylashtirib chiqilishi mumkin, ya'ni  $a_p^{j_1} \geq a_p^{j_2} \geq \dots \geq a_p^{j_\ell} \geq a_p^{j_{\ell+1}} \geq \dots \geq a_p^{j_N}$ .

Bu ketma-ketlikning birinchi  $\ell$  ta hadi  $a_p^{j_1} \geq a_p^{j_2} \geq \dots \geq a_p^{j_\ell}$ , (9) optimizatsiya masalasining yechimi bo'ladi. Bu algoritmni adabiyotlarda tartiblash algoritmi deb

ham yuritiladi. Mazkur usul orqali informativ belgilar majmuasini tanlash algoritmi murakkabligi, ya'ni hisoblashlar va o'rinlashtirishlar soni  $N + \frac{N(N-1)}{2}$  ga teng bo'ladi.

### Tartiblashga asoslangan algoritm N ta nominal belgilar

**1-qadam.** Kirish parametrlari  $x_{pi}^1, x_{pi}^2, \dots, x_{pi}^N, p = \overline{1, r}; i = \overline{1, m_p}$ ; yuklanadi;

**2-qadam.**  $\rho_{pi}(x_{pi}, x_{pq}) = (\rho_{pi}^1(x_{pi}, x_{pq}), \rho_{pi}^2(x_{pi}, x_{pq}), \dots, \rho_{pi}^N(x_{pi}, x_{pq}))$  vektor komponentalari quyidagi formula orqali shakllantiriladi:

$$\rho_{pi}^j(x_{pi}, x_{pq}) = \begin{cases} 1, & \text{agar } (x_{pi}^j - x_{pq}^j) = 0; \\ 0, & \text{aks holda} \end{cases}$$

**3-qadam.** (10) formuladan foydalanib  $a_{pi} = (a_{pi}^1, a_{pi}^2, \dots, a_{pi}^N)$  vektorlarning parametrlari, barcha  $p = \overline{1, r}; i = \overline{1, m_p}, j = \overline{1, N}$ ; lar uchun hisoblanadi;


**4-qadam.**  $a_p = (a_p^1, a_p^2, \dots, a_p^N)$  vektor quyidagi ko'rinishda ifodalanib,

$$a_p = \frac{1}{m_p(m_p-1)} a_{p1} + \frac{1}{m_p(m_p-1)} a_{p2} + \dots + \frac{1}{m_p(m_p-1)} a_{pm_p}$$

uning komponentalari barcha  $p = \overline{1, r}; j = \overline{1, N}$ ; lar uchun (10) formula asosida hisoblanadi;

